ISSN: 3060-4613

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI

O'zbekiston Milliy Pedagogika Universiteti



13.00.00 Pedagogika fanlari
13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
13.00.03 Maxsus pedagogika
13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohalari va bosqichlari bo'yicha)
13.00.07 Ta'limda menejment
13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
07.00.00 Tarix fanlari
19.00.00 Psixologiya fanlari
01.00.00 Fizika-matematika fanlari
02.00.00 Kimyo fanlari
03.00.00 Biologiya fanlari
09.00.00 Falsafa fanlari
10.00.00 Filologiya fanlari
11.00.00 Geografiya fanlari

№1(2)
2026

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal

// MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Elektron nashr. 138 sahifa,
20-yanvar, 2026-yil.

**BOSH MUHARRIR:**
**Karimova E'zoza Gapirjanovna –** O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

**BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:**
**Ibragimova Gulsanam Ne'matovna** – Pedagogika fanlari doktori, professor

***TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI***
***Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik***
***Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik***
***Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor***
***Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Shermuhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor***
***Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor***
***Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor***
***Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor***
***Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)***
***Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)***
***Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)***
***Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)***
***Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)***
***Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)***
*Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent*
***Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor***
***G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)***
***Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent***
***Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent***
***Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent***
***Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent***
***Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti***
***Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor***
***Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)***
***Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent***
***Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),dotsent***
***Doniyorov S. M. –"Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)***
***Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent***
***Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori***
***Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent***
***Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari***
***Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)***
***Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent***

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ
Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

**EDITOR-IN-CHIEF:**
**Karimova E'zoza Gapirzhanovna –** Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

**DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:**
**Ibragimova Gulsanam Ne'matovna** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

***EDITORIAL BOARD MEMBERS:***
***Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician***
***Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician***
*Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor*
***Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Shermuhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor***
***Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor***
***Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor***
***Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor***
***Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)***
***Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)***
***Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)***
***Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)***
***Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)***
***Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)***
Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
***Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor***
***Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)***
***Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor***
***Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor***
***Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor***
***Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor***
***Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service***
***Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor***
***Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)***
***Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor***
***Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor***
***Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)***
***Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor***
***Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics***
***Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor***
***Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region***
***Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences***
***Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor***

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:
Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:
• Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
• Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)
Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):
• Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
• Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№C-5669363** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

# MUNDARIJA

Maktabga tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilarini maktab ta'limiga tayyorligini aniqlash ..... 16
Akramova Dildora Ergashboy qizi

Bola tarbiyasida o'yinning ahamiyati ..... 21
Choriyeva Durdona Anvarovna, O'ktamova Nasiba Ravshan qizi

O'quvchilarning loyiha-tadqiqot faoliyatini tashkil etishning ilmiy asoslari ..... 25
Sobirova Nilufar Azimboy qizi

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida pedagogik jarayonni tashkil etish ..... 29
Choriyeva Durdona Anvarovna, Ko'zibayeva Nasiba O'tkir qizi

Maktabgacha yoshdagi bolalarda sensor tarbiyani rivojlantirish texnologiyalari ..... 32
Choriyeva Durdona Anvarovna, Allaberdiyeva Mardona O'tkirbek qizi

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni jismoniy tarbiyalash mazmuni va vazifalari ..... 37
Choriyeva Durdona Anvarovna, Mirsharafova Shahinabegim Saidabbos qizi

Gandbolchi sportchilarni jismoniy tayyorgarligida harakatli o'yinlarning tarbiyaviy rivojlantiruvchi vazifalari ..... 41
Ibodullayeva Munira Atabek qizi

Boshlang'ich sinflarda dars samaradorligini oshirishda noan'anaviy usullardan foydalanish samaradorligi ..... 44
Yusufaliyeva Gulnora Abduraxmonovna

Modern Requirements for a Teacher's Pedagogical Skills in the Context of Digital Transformation in Education ..... 49
Abira Bakhramova

Ta'lim muassasalarida o'smir yoshlarning ijtimoiylashuv jarayonini samarali tashkil etishga yordam beruvchi pedagogik omillar va shart-sharoitlar ..... 54
Artikova Gulnoza Xasanovna

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida iqtisodiy tarbiya berishning nazariy-pedagogik asoslari ..... 57
Mamadaliyeva Nilufar Bahodirovna

Kognitiv lingvistika va konseptologiya masalalari ..... 60
Meyliqulova Manzura Abdullayevna

Developing Law Students' Writing Competence Through the IRAC Method in Legal English Classes: A Comprehensive Study at TSUL ..... 63
Noila Mustafoyeva

Tarixiy obidalarning restavratsiya jarayonlarining o'rganilish tarixi ..... 67
Ochilov Davron Bahodir o'g'li

Oliy ta'limda baholash jarayonini avtomatlashtirishda sun'iy intellekt texnologiyalarining qo'llanishi ..... 72
Ovxunov Iqboljon Abdunabiyevich, Mamadaliyeva Kamolaxon Xayrullo qizi

Tabiiy yorug'lik va barqaror energiya manbalarini integratsiyalashgan mini home loyihasi ..... 76
Djuraboyev Maqsudbek Karimbek o'g'li, Qodirjonov Oyatillo Abdulboqi o'g'li

Talabalarning tarixiy tafakkurini rivojlantirishda madaniy meros vositalarining pedagogik ahamiyati ..... 80
Rajabova Matluba Toshkentboy qizi

Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilarining umummadaniy kompetensiyalarini rivojlantirish texnologiyalari ..... 83
Saidova Nigora Olimovna, Jo'rayeva Nilufar Rustamjon qizi

Raqamli kommunikatsiyalarni o'smirlar shaxsiyatining rivojlanishiga ta'siri ..... 86
Shomurotova Nigoraxon Nabijonovna

Talabalarning chizma geometriya fanini mustaqil bilish faoliyatiga oid kompetensiyalarini "Visio" dasturi vositasida rivojlantirish metodikasi ..... 90
Tashimov Nurlan Erpolatovich

Shaxslararo munosabatlar – ijtimoiy pedagogik muammo sifatida........94
Uralova Muxabbat Sanjar qizi

O'zbek tili darslarida raqamli ta'lim vositalaridan foydalanish tajribasi........98
Yuldasheva Dilnoza Bekmurodovna

Психологическая готовность разведенных людей к вступлению в новый брак и приоритеты при выборе партнера........101
Саидвалиева Шодия Рихсихужа кизи

Воспитание любви к прекрасному у дошкольников в развивающей предметно-пространственной среде: теоретико-методический аспект........107
Терехова Ольга Евгеньевна, Темирова Барно Кёмхоновна

Методика формирования наблюдательности у детей 6–7 лет в процессе целенаправленных прогулок-наблюдений........111
Терехова Ольга Евгеньевна, Шокиржонова Мохира Илхомжон кизи

Bo'lajak tarbiyachilarni kasbiy pedagogik faoliyatga tayyorlash texnologiyalari........115
Artikbayeva Aziza Abror qizi

Zamonaviy darslarda guruhlarda ishlash metodikasi........118
Berdiyeva Lobar Norqobulovna

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida faol rivojlantiruvchi muhitni tashkil etishda STEAM ta'lim texnologiyasidan foydalanish........120
Esanova Maysara Umirovna

Logopediyada axborot texnologiyalarini qo'llash metodlari........124
Feruza Yusupova Akildjanovna

Axborot texnologiyalarining ta'lim jarayonidagi o'rni va rivojlanish bosqichlari........130
Qodirov Farrux Ergash o'g'li, Allanazarova Anora Muxobir qizi

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ilmiy-ijodiy kompetentsiyalarini rivojlantirish........134
Umarov Xusniddin

# O‘QUVCHILARNING LOYIHA-TADQIQOT FAOLIYATINI TASHKIL ETISHNING ILMIY ASOSLARI

Sobirova Nilufar Azimboy qizi
Toshkent Davlat Tibbiyot universiteti assistenti

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada o‘quvchilarning loyiha-tadqiqot faoliyatini tashkil etishning ilmiy-nazariy asoslari tahlil qilinadi. Loyiha-tadqiqot faoliyati o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, amaliy va tadqiqotchilik ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiluvchi samarali pedagogik mexanizm sifatida yoritilgan. Ilmiy yondashuvlar va pedagogik prinsiplarga tayangan holda loyiha-tadqiqot ishlarini bosqichma-bosqich tashkil etish, tadqiqot mavzularini tanlash, metodlarni qo‘llash hamda olingan natijalarni tahlil qilishning ahamiyati asoslab berilgan. Shuningdek, maqolada loyiha-tadqiqot faoliyatini ta’lim jarayoniga samarali joriy etish bo‘yicha pedagoglar uchun amaliy-metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Kalit so‘zlar:** loyiha-tadqiqot faoliyati, loyiha metodi, ilmiy yondashuv, ta’lim-tarbiya, o‘quvchi, o‘qituvchi.

**Abstract:** The article analyzes the scientific and theoretical foundations of organizing students’ project-based and research activities. Project-based and research activities are considered an effective pedagogical mechanism that promotes the development of independent thinking, problem analysis skills, and the formation of practical and research competencies in students. The importance of a phased organization of project and research work based on scientific approaches and pedagogical principles, the selection of research topics, the application of appropriate methods, and the analysis of obtained results is substantiated. In addition, the article provides practical and methodological recommendations for teachers on the effective integration of project-based and research activities into the educational process.

**Key words:** project-based and research activities, project method, scientific approach, education and upbringing, student, teacher.

**Аннотация:** В статье анализируются научно-теоретические основы организации проектно-исследовательской деятельности учащихся. Проектно-исследовательская деятельность рассматривается как эффективный педагогический механизм, способствующий развитию у школьников самостоятельного мышления, навыков анализа проблемных ситуаций, а также формированию практических и исследовательских умений. Обоснована значимость поэтапной организации проектно-исследовательской работы на основе научных подходов и педагогических принципов, выбора тем исследований, применения методов и анализа полученных результатов. Кроме того, в статье представлены практико-методические рекомендации для педагогов по эффективному внедрению проектно-исследовательской деятельности в образовательный процесс.

**Ключевые слова:** проектно-исследовательская деятельность, метод проектов, научный подход, обучение и воспитание, ученик, учитель.

## KIRISH

Olimlar va amaliyotchi o‘qituvchilar ta’kidlashicha, o‘quvchilarni ilmiy-tadqiqot faoliyatiga, loyihalarni ishlab chiqishga va ijodiy ishlarga jalb qilish ularning mustaqil o‘rganishi hamda kasbiy faoliyatga yo‘naltirish uchun samarali shart-sharoitlar yaratadi. Bu yerda ta’lim-tarbiya jarayonining mustaqil tarkibiy qismi sifatida tadqiqotchilik faoliyatiga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bizning tadqiqot kontekstimizda esa “loyihaviy-tadqiqot faoliyati” asosiy tushunchalar sifatida xizmat qiladi. Shu munosabat bilan ularni o‘rganishning ilmiy asoslariga e’tibor qaratamiz.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Tadqiqot D.N. Ushakova ta’rificha, biror masalani o‘rganuvchi ilmiy asar hisoblanadi.

Ensiklopediyaga ko‘ra, ilmiy tadqiqot - bu yangi ilmiy bilimlarni yaratish jarayoni bo‘lib, bilish faoliyatining bir turi hisoblanadi.

MAKTABGACHA PRE-SCHOOL ДОШКОЛЬНОЕ

Ilmiy tadqiqotning asosiy tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat:

- muammoni aniq belgilash;
- mavjud ma'lumotlar, shart-sharoitlar va sohaga oid muammolarni hal qilish usullarini tahlil qilish;
- dastlabki gipotezalarni shakllantirish;
- gipotezalarni nazariy jihatdan tahlil qilish;
- eksperimentni rejalashtirish va tashkil etish;
- eksperimentni o'tkazish;
- olingan natijalarni tahlil qilish va umumlashtirish;
- olingan faktlar asosida dastlabki gipotezalarni tekshirish;
- yangi faktlar va qonunlar asosida yakuniy xulosalar, tushuntirishlar yoki ilmiy basharotlar ishlab chiqish;
- olingan natijalarni amaliyotga joriy qilish.

A.Leontovich fikricha tadqiqotchilik faoliyati - o'quvchilarni oldindan yechimi noma'lum bo'lgan ijodiy tadqiqot muammosini hal qilishga yo'naltirish va bu jarayonda ilmiy tadqiqotga xos asosiy bosqichlarni o'z ichiga olgan o'quv ishlarini tashkil etish tushuniladi.

O'quv - tadqiqot faoliyati deganda V.N.Borzdun ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishning shunday shaklini ya'ni o'quvchilar tomonidan oldindan noma'lum natija bilan (hech bo'lmaganda o'quvchi uchun) ijodiy va tadqiqotchilik vazifalarini hal qilishni o'z ichiga oladigan hamda ilmiy tadqiqotga xos asosiy bosqichlarni o'z ichiga qamrab oladigan, muammoni aniqlash, mavzu bo'yicha adabiyotlar bilan tanishish, tadqiqot metodikasini o'zlashtirish, ma'lumotlarni to'plash, tahlil qilish, umumlashtirish va xulosalar chiqarish qobiliyatiga egalilikni nazarda tutadiki.

V.N. Borzdun, L.A.Borzdunlar ilmiy-tadqiqot faoliyatiga qo'yiladigan talablarni quyidagilar deb belgilashgan va biz ham ularga amal qilamiz:

- tanlangan tadqiqotning ahamiyati va dolzarbligi;
- shaxsiy fikrning shakllanganligi va isbotlanganligi;
- tadqiqotni umumlashtiruvchi xulosalarning aniq va ravshanligi;
- ma'lumot va faktlardan, shuningdek maktab dasturidan tashqari bilimlardan samarali foydalanish qobiliyati;
- muammoning hozirgi holati va muallifning u bilan tanishlik darajasini aks ettiruvchi sifatli tahlil;
- tadqiqot natijalarini rasmiylashtirish va himoya qilishdagi savodxonlik;
- ish mazmunining qo'yilgan maqsad va tanlangan mavzuga muvofiqligi;
- mavzu bo'yicha munozara olib borish qobiliyati;
- ijroning texnologik va texnik jihatdan to'liqligi;
- badiiy did va estetik nuqtai nazar.

Tizimli tahlil usullari (komponentli, mohiyatli, integrativ va bashoratli) hamda murakkab tizimlarni o'rganish usullari bilan tanishish va turli axborot manbalari - ilmiy va maxsus adabiyotlar, davriy nashrlar va ma'lumotnomalardan mustaqil ravishda foydalanish ko'nikmalari bilan birlashtiriladi. Shuningdek, tadqiqot jarayonida odamlar bilan aloqa o'rnatish, anketalar va so'rovnomalar tuzish hamda ularni tahlil qilish, kuzatishlarni tashkil etish, ilmiy tadqiqot uchun zarur jihozlardan mustaqil foydalanish, tajriba va eksperimentlar o'tkazish kabi faoliyatlar ham amalga oshiriladi.

A.Leontovich fikriga ko'ra, tadqiqotchilik faoliyatining o'ziga xos belgisi - bu tanlangan hodisani tadqiq qilishning aniq metodikasi, o'z eksperimental materiali va ma'lumotlarini tahlil qilish hamda ulardan olingan xulosalarning mavjudligidir.

O'quvchilarning ijodiy salohiyatini rivojlantirishga hizmat qiluvchi pedagogik texnologiyalardan biri – loyihalar usulidir. 1919 yilda AQShning Dalton shahrida Ye.Parkxart sinf-dars tizimini individual ishlar orqali har bir o'quvchi bilan alohida ishlash va keyinchalik ularning har birining pedagog bilan birgalikda ishlab chiqilgan reja asosida o'quv faoliyatini tashkil qilishga qaratilgan tajribalarni amalga oshirdi. Bu tajriba "Dalton rejasi" deb nomlandi. Keyinchalik bu metod ko'plab maktablar va oliy ta'lim muassasalarida "loyihalar usuli" sifatida qo'llanilgan bo'lib, hozirgi kunda ham maktab amaliyotida o'z ahamiyatini saqlab kelmoqda.

Loyihalar usuli - bu o'quv jarayonini individuallashtirishga imkon beruvchi kompleks pedagogik yondashuv bo'lib, o'quvchiga o'z faoliyatini rejalashtirish, tashkil qilish va nazorat qilishda mustaqillikni ko'rsatish imkonini beradi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Loyiha-tadqiqot texnologiyasi muayyan kurs bo'yicha ta'lim dasturining asosiy mavzularini yoki bo'limlarini o'zlashtirish uchun loyihani ishlab chiqishdan boshlanadi. Mavzuni yoritish rejasi oldindan belgilanadi. O'quvchilar tomonidan jumlalar va topshiriqlarni bajarish usullari belgilanadi. Bolalar kichik guruhlarga bo'linadi, ularda bo'lajak natijaning aniqlovchi va yakunlash shakllari belgilab olinadi. Faoliyatning ijodiy xususiyati ishtirok etuvchilarning motivatsiyasini oshiradi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Loyiha asosidagi ta'lim jarayonida o'quvchilar turli muammolarni hayotiy tajriba asosida hal qilishga jalb qilinadilar. Shu bois, loyihaviy faoliyat katta pedagogik salohiyatga ega bo'lib, zamonaviy tezkor o'zgaruvchan sharoitda o'sib kelayotgan avlodning ijtimoiy va intellektual salohiyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Tabiat olamini o'rganish esa tizimli yondashuv asosida amalga oshiriladigan o'quv tadqiqot loyihalari orqali samarali tarzda amalga oshiriladi. Loyihalar ustida ishlash jarayoni quyidagi bosqichlardan iboratligi va ular qanday amalga oshirilishi muhim ahamiyat kasb etadi.

1. Avvalo, o'quvchilar o'zlari uchun dolzarb bo'lgan muammoni aniqlaydilar va mazkur muammo ustida ma'lum vaqt davomida, yakka tartibda yoki kichik guruhda ishlaydilar. Bu bosqichda o'quvchilar fanning turli sohalaridagi muammolarni aniqlash ko'nikmalarini rivojlantiradilar.
2. Vazifani belgilash va ish rejasini tuzish o'quvchilarda tanlangan muammoni hal qilishning mumkin bo'lgan yo'llarini izlash, tadqiqot obyektlarini aniqlash qobiliyatini rivojlantiradi.
3. Belgilangan vazifalarga muvofiq loyihani amalga oshirish jarayonida o'quvchilar farazlarni ilgari surish, tabiiy ob'ektlar bilan tajribalar o'tkazish, olingan ma'lumotlarni tizimlashtirish va umumlashtirish, turli manbalardan olingan ma'lumotlarni tahlil qilish hamda biologik jarayonlarni tadqiq qilish ko'nikmalarini rivojlantirish imkoniyatiga ega bo'ladilar.
4. Ishni yakunlash bosqichida o'qituvchi o'quvchilarda ilmiy isbotlangan xulosalarni chiqarish, tajriba va sinov ishlari ma'lumotlarini qayta ishlash, olingan natijalarni rasmiylashtirish, kognitiv va ijodiy muammolarni hal qilish hamda hamkorlikda ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish imkonini ta'minlaydi.
5. Tadqiqotni himoya qilishga tayyorlashda o'quvchilar mustaqil ravishda kompyuter va multimedia uskunalaridan foydalangan holda loyiha taqdimotini tayyorlaydilar hamda dalillar tizimini shakllantiradilar. Ushbu bosqichning maqsadi - o'z tadqiqot faoliyati natijalarini taqdim etish, muammoni hal qilish usullarini jamoatchilikka yetkazish hamda yechimlarning to'g'riligini isbotlash orqali maktab o'quvchilarida muloqot ko'nikmalari va madaniyatini rivojlantirishdir.

Tadqiqot ishlari metodlarini tanlashda hamda to'plangan ma'lumotlarni qayta ishlash va o'quvchilarning mustaqil xolda ishlashi talab etiladi. Ushbu ishlar ma'lum tadqiqot tajribasiga ega bo'lgan maktab o'quvchilari tomonidan bajariladi, rahbarlar esa maslahatchi sifatida ishtirok etib, zarur bo'lgan hollarda ularni tadqiqotning turli bosqichlarida qo'llab-quvvatlaydilar.

O'qituvchi muammoli vaziyatlarni xosil qilishi uchun turli metodik uslublarni qo'llashi mumkin. O'qitish jarayonida o'quvchilar o'rtasida turli ilmiy qarama qarshiliklarni duch keltirish va ularni mustaqil ravishda hal qilishga undash, amaliyotda qarama-qarshiliklar yuzaga kelishi mumkin bo'lgan holatlar bilan ishlashni tashkil qilish muhimdir. Shu bilan birga, bir masala yuzasidan turli nuqtai nazarlarni bayon qilish, hodisani turli pozitsiyalardan tahlil qilish (masalan, qo'mondon, huquqshunos, moliyachi, o'qituvchi va h.k.) kabilar o'quvchilarning tanqidiy fikr yuritishini rivojlantiradi. Bunday metodik uslub taqqoslash, umumlashtirish, faktlarni solishtirish va vaziyatdan xulosa chiqarish kabi fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishga yordam beradi.

Tadqiqotchilik ko'nikmalarini shakllantirish jarayoni izchil bo'lishi, sinfdan sinfga va oddiydan murakkabga o'tib, uzluksiz rivojlanish xususiyatiga ega bo'lishi lozim. Bunda asosiy metodlardan biri - tadqiqotchilik xarakteriga ega bo'lgan muammoli darslarni tashkil etishdir. Bunday darsning asosiy maqsadi - o'quvchilar uchun sharoit yaratish, olingan bilimlarni umumlashtirish va tizimlashtirish hamda ularni nostandart masalalarni tahlil qilishda qo'llashni o'rgatishdir.

Loyihalar usuli faqat faoliyat orqali rivojlanadigan va og'zaki (masalan, hikoya qilish yoki tushuntirish orqali) o'zlashtirib bo'lmaydigan ba'zi qarashlarni tushuntirish kabi fazilatlarini shakllantirish imkonini beradi. Avva-

lambor, bu kichik gurux faoliyatida ishtirok etadigan guruh loyihalarga xosdir. Bunday fazilatlarga jamoada samarali ishlash, qabul qilingan qaror uchun shaxsiy mas'uliyatni olish va faoliyat natijalarini tahlil qilish qobiliyati kiradi. Shuningdek, jamoa a'zosi sifatida o'zini his qilish muhim ahamiyatga ega, bu esa o'z temperamenti, xarakteri va vaqtini umumiy maqsadlar manfaatlariga moslashtirishni talab qiladi. Loyihada ishtirok etish boshqa faoliyat turlari orqali qo'lga kiritib bo'lmaydigan noyob natijaga erishish imkonini beradi.

Loyihaviy ta'limda komandalarni tuzish va ularda o'quvchilarni samarali ishlashga alohida e'tibor qaratilishi zarur, chunki ishning mohiyati ijtimoiy loyihalashtirishda namoyon bo'ladi. Ijtimoiy muammolar, hatto kichik ko'rinishidagi muammolar ham odatda yolg'iz hal qilinmaydi, ularni faqat guruhda (kam deganda ikki kishi ishtirokida) aniq va barqaror o'zgarishlarga yo'naltirish mumkin.

Nima uchun tadqiqot va loyiha ishlarini olib borish nima uchun zarur:

1. U olingan nazariy bilimlarni amaliy faoliyatga integratsiya qilish, ularni nostandart vaziyatlarda qo'llash imkonini beradi. Bu esa o'quvchiga zamonaviy ta'limda eng zarur hisoblanadigan ko'nikmalar – kompyuterdan samarali foydalanish va tadqiqot loyihalarini amalga oshirish imkoniyatini taqdim etadi.
2. Tadqiqot ishi oliy ta'lim muassasalaridagi prinsiplar asosida tashkil etiladi, shu bois uni maktabda olib borish ta'limda uzluksizlikni ta'minlaydi va maktabdan oliy ta'limga o'tishni osonlashtiradi.
3. Dasturiy materialni chuqurroq o'rganish va hayotiy vaziyatlar bilan bog'lash imkonini yaratadi.
4. Dasturiy materialni chuqurroq o'rganish va hayotiy voqealar bilan bog'lash imkonini yaratadi.
5. Mahalliy jamiyatga foyda keltirish, yoshlarning imkoniyatlaridan kelib chiqib barchani qiziqtiruvchi masalalarni muhokama qilish va murakkab vaziyatlardan chiqish yo'llarini topishga harakat qilishni rag'batlantiradi.
6. Maktab o'quvchilarida o'qishga bo'lgan motivatsiyani oshiradi.
7. Yoshlarning hayotiy faolligini va vatanparvarlik hissini kuchaytirishga xizmat qiladi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Shunday qilib, yuqoridagi ma'lumotlarga asoslanib quyidagi xulosa qilish mumkin. Loyiha-tadqiqotchilik faoliyati - ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishning o'quvchilar tomonidan ijodiy va tadqiqotchilik vazifalarni hal etishga qaratilgan, tadqiqotga xos asosiy bosqichlarni o'z ichiga olgan shakl sifatida tushuniladi. Loyiha-tadqiqot faoliyatini tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari rag'batlantirish va kasbiy yo'naltirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratishdan iboratdir.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Нешко О.В. К вопросу о значении исследовательской деятельности в процессе подготовки учителя [Текст] / О.В. Нешко // Вестник педагогических инноваций. - 2007. - №1. - С. 56 – 60
2. U.E. Raxmatov va boshqalar. Biologiyadan masala va mashqlar yechish. Darslik. SARVAR PRINT nashriyoti, 2024.
3. M.N. Doniyorov va boshqalar. Biologiya o'qitish metodikasidan amaliy mashg'ulotlar (o'quv qo'llanma). "IlmZiyo Zakovat" nashriyoti, 2024.
4. Zayniyev S. Fan olimpiadalarining tashkil etish mazmuni, tahlili va ta'limtarbiyadagi o'rni. Science and Innovation, 1(B8), 2022, 229–234.
5. S.Z., J. (2021). The Importance Of Developing Competence In Understanting And Interpreting Processes In Biological Objects Through Problem-Solving And Exercise. The American Journal of Social Science and Education Innovations, 3(05), 503–507.

| | |
|---|---|
| 13.00.00 | Pedagogika fanlari |
| 13.00.01 | Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi |
| 13.00.02 | Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo‘yicha) |
| 13.00.03 | Maxsus pedagogika |
| 13.00.04 | Jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlari nazariyasi va metodikasi |
| 13.00.05 | Kasb-hunar ta’limi nazariyasi va metodikasi |
| 13.00.06 | Elektron ta’lim nazariyasi va metodikasi (ta’lim sohalari va bosqichlari bo‘yicha) |
| 13.00.07 | Ta’limda menejment |
| 13.00.08 | Maktabgacha ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi |
| 13.00.09 | Ijtimoiy pedagogika |
| 07.00.00 | Tarix fanlari |
| 19.00.00 | Psixologiya fanlari |
| 01.00.00 | Fizika-matematika fanlari |
| 02.00.00 | Kimyo fanlari |
| 03.00.00 | Biologiya fanlari |
| 09.00.00 | Falsafa fanlari |
| 10.00.00 | Filologiya fanlari |
| 11.00.00 | Geografiya fanlari |

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov
**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov
**Musahhih:** Alibek Zokirov
**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2026. №1(2)**


© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№C–5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
**Litsenziya raqami: № 136361**.

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.